

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
SENTYABR / 9-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В Г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, sentyabr.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ASOSIY VOSITALARNING DASTLABKI QIYMATINI SHAKLLANTIRISHNING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDAGI METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	9
Nematova Dilnoza Azamatovna	
TIJORAT BANKLARIDA MIJOZGA YO'NALTIRILGAN BIZNES-JARAYONLARINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING HOZIRGI HOLATI.....	15
Erdonayev Aliqul Xalimovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	23
Нигматова Сугдиена Жалолиддин кизи	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING MEKANIZMLARIDAN FOYDALANISH.....	29
Bazarova Mamlakat Supiyevna	
XORIJIY ILMIY STAJIROVKALARNI TASHKIL ETISH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISHNING TIZIMLI TAHLILI VA KONSEPTUAL MODELI	33
Tojiyev S.A., Mashg'ulotov J.A., Usmonov U.M.	
HUDUDLAR IQTISODIYOTIDAGI NOMUTANOSIBLIK LARNI BARTARAF ETISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	44
Toshov Mirzabek Hakimovich	
O'ZBEKISTONDA YENGIL SANOAT KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH	50
O'rinova Umida Qodirjonovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA ULTRABINAFSHA C NURLANISH TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI: ZAMONAVIY HOLATI, SAMARADORLIGI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	54
Ibroximov Sanjarbek, Nematov Nurillo, Xakimov Dilmurod	
TEXNOGEN CHIQINDILAR ASOSIDA MNA-1 VA MNA-2 FAOL KIMYOVIY QO'SHIMCHALARINI SINTEZ QILISH VA SEMENT XAMIRINING REOLOGIK KO'RSATKICHLARINI BOSHQARISH.....	64
Muhamedov Nodir Abdug'aniyevich	
IKKI TOMONLAMA TA'MINLANADIGAN ASINXRON GENERATOR ASOSIDAGI SHAMOL ENERGETIKA TIZIMINI MATEMATIK MODELASHTIRISH VA VEKTORLI BOSHQARISHNI TADQIQ ETISH.....	69
To'ychiyev Furqat, Rashidov Nuralibek, Abduxalilov Abdumannop	
СЕЙСМОСТОЙКОСТЬ МАЛОЭТАЖНОГО ЗДАНИЯ С ПУЛТРУЗИОННЫМ СТЕКЛОПЛАСТИКОВЫМ КАРКАСОМ И ДЕФОРМАЦИОННО-РАЗВЯЗНЫМИ 3D-ПЕЧАТНЫМИ СТЕНАМИ.....	80
Акбаров Дильшод, Акрамов Хуснитдин	
LEGIRLANGAN SILIKAT SHISHADA ZEEBEK EFFEKTIGA MNO_2 TA'SIRI	90
Soliyev Muxammadyor, Tursunova Rushana	
TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI PROGNOZLASH.....	99
Eshboyev Shahobiddin Anorqul o'g'li	
O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORAT SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	107
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
UNIVERSITET INSON KAPITALINI SHAKLLANTIRISH EKOTIZIMI SIFATIDA: DUNYO VA O'ZBEKISTONDA TA'LIM SIYOSATINING EVOLYUTSIYASI	114
Sabirov Alisher, Oqmullayev Ravshanjon	
PUTUR YETKAZMASDAN TEKSHIRISH LABORATORIYALARINI AKKREDITATSIYALASHDA STANDARTLASHTIRISH TALABLARINING AHAMIYATI.....	122
Axmedov G'ayratjon Maxmudjonovich	



QURILISH SANOATI KORXONALARIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI	129
G'iyosov Ilxom Karimovich KORXONALARDA INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH: G'OYALARNI TIJORIYLASHTIRISHNING SAMARALI MEXANIZMLARI	137
Baymuradov Shoxrux, Dilmurodov Komiljon DAVLAT BUDJETI BARQARORLIGI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR KLASSIFIKATSIYASI	142
Gadoyeva Nilufar Erkinovna KORXONALARDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA INNOVATION MARKETING TEKNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH	148
Ikramova Nasiba Axmadovna TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING MAMLUKAT IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIRI.....	153
Mizamova Umida Jamoliddin qizi ERKIN IQTISODIY ZONALARNING ASOSIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH VA PROGNOZ NATIJALARINI BAHOLASH (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)	158
Ibragimov Aziz Turayevich TAQSIMLANGAN IOT TIZIMLARIDA KECHEKISHGA SEZGIR VAZIFALARNI CHEKKA HISOBLASH (MEC) TUGUNLARIGA OPTIMAL YO'NALTIRISH USULLARI	164
Xolmatov Numonjon Meliboyevich ОРГАНИЗАЦИОННО-МЕТОДИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ФОРМИРОВАНИЯ КАЧЕСТВЕННОЙ ФИНАНСОВОЙ ИНФОРМАЦИИ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ НСФО	171
Джамбакиева Гулнора Сайфутдиновна RESEARCHING METHODS FOR THE AUTOMATIC DETECTION OF OFFENSIVE LANGUAGE BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE.....	181
Fayzullaev Nurbek, Kuchkarov Muslimjon MINTAQAVIY TRANSPORT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	186
Ikromov Elyor Ibodulloyevich TUMANLAR SANOAT SALOHİYATINI INTEGRAL BAHOLASH ASOSIDA KICHIK SANOAT ZONALARINI JOYLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MODELI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA).....	193
Yusupova Nigina Djurayevna TURIZM SOHASI BARQAROR RIVOJLANISHINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING TASHKILIY-IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	199
O'sarov Abdulla Davronqulovich TASHQI SAVDO JARAYONLARINI BOSHQARISHDA "INTEGRATSIYALASHGAN TARIF" INTERAKTIV XIZMATIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	207
Muzaffarov Azimjon Ashraf o'g'li "NAVOIY KMK" AJDA INNOVATION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING TASHKILIY- IQTISODIY KOMPONENTLARI.....	212
Kurbanova Mehriniso, Masharipov Ma'sud HUDUDIIY ENERGETIKA TA'MINOTI TIZIMIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING NEYRO- RAVSHAN EKONOMETRIK MODELLARI: QASHQADARYO VILOYATI ELEKTR ENERGETIKA TIZIMIDAN DALILLAR.....	219
Jo'rayev Farrux Do'stmirzayevich BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA MOLIVAVIY AXBOROT VA BUXGALTERIYA HISOB MEXANIZMLARI	224
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna AUTORSING XIZMATLARI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	232
Mirxonov Mirfoziljon Olimjon o'g'li	



MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR TUSHUNCHASI VA ULARNING TASNIFI	237
Erdonova Maxfuza Mardonovna	
KO'P QAVATLI BINOLARDA LIFT SHAXTASI KONSTRUKSIYASINING SEYSMIK VA DINAMIK YUKLARGA BIRGALIKDAGI TA'SIRINI TAHLIL QILISH	242
Boymirzayev Azizbek Asqarali o'g'li	
ULTRATOVUSH DIAGNOSTIKA ROBOTI UCHUN AVTOMATIK GEL SIQISH TIZIMINI KONSTRUKTIV-TEKNOLOGIK LOYIHALASH VA VIRTUAL TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH	249
Nodirbek Ruziyev, Zafar Botirovich Jurayev	
SANOAT AVTOMATLASHTIRISH TIZIMLARINING ZAMONAVIY RIVOJLANISH YO'NALISHLARI VA ULARNING TAHLILI	255
Sayilxonov Xudoyor Narzullo o'g'li	
SUV RESURSLARI CHEKLANGAN SHAROITDA HUDUDIY IXTISOSLASHUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING USLUBIY ASOSLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA).....	263
Sodiqova Nigora Turayevna	
CREDIT PORTFOLIO IN COMMERCIAL BANKS AS A FACTOR IN IMPROVING ASSET QUALITY AND STABILITY	270
Baymuratova Zina Aqilbekovna	
ВЛИЯНИЕ ОПТИМИЗАЦИИ НАЛОГОВОГО БРЕМЕНИ НА ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКУЮ АКТИВНОСТЬ.....	274
Хакимов Улугбек Абдуллаевич	
KATTA TIL MODELLARI YORDAMIDA DASTURIY TEST SSENARIYLARINI GENERATSIYALASHDA GALLYUTSINATSIYALAR MUAMMOSI VA ULARNI KAMAYTIRISH YONDASHUVLARI.....	280
Matkarimov Bobirjon Erkinboyevich	
INVESTISIYALARNI JALB ETISHDA INVESTISIYA SIYOSATI VA INVESTISIYA MUHITI	286
Sodiqov Maqsudjon Abdolimovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI EKSPORT SALOHIYATINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY YONDASHUVLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI.....	292
Djurayeva Munira Sadilloyevna	

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI EKSPORT SALOHIYATINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY YONDASHUVLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI

Djurayeva Munira Sadilloevna

Osiyo xalqaro universiteti

Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

[ORCID: 0009-0005-0284-3508](https://orcid.org/0009-0005-0284-3508)

E-mail: djuraeva.1982@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini baholashning nazariy-uslubiy yondashuvlari tizimlashtirilgan hamda ko'p o'lchovli ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan. Mavjud yondashuvlar (resurs, natija, qiyosiy-raqobat va integral) qiyosiy tahlil qilinib, ularning afzalliklari va cheklovlari aniqlangan. Muallif tomonidan oltita blokni qamrab oluvchi Eksport Salohiyatini Baholash Indeksi (ESBI) taklif etilgan. Bloklarning vaznlari ekspert baholashning AHP usuli asosida belgilangan, integral indeks esa min–maks normallashtirish va vaznli yig'indi usuli orqali hisoblangan. Metodika Buxoro viloyatidagi 60 ta tadbirkorlik subyekti ma'lumotlari asosida sinovdan o'tkazilib, indeksning eksport faolligi bilan yuqori darajadagi bog'liqligi ($r = 0,71$) aniqlangan. Tadqiqot natijalari asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: eksport salohiyati, baholash metodikasi, ko'rsatkichlar tizimi, integral indeks, ESBI, AHP, normallashtirish, tadbirkorlik subyektlari.

Аннотация. В статье систематизированы теоретико-методические подходы к оценке экспортного потенциала субъектов предпринимательства и разработана многомерная система показателей. Проведен сравнительный анализ существующих подходов (ресурсного, результативного, сравнительно-конкурентного и интегрального), выявлены их преимущества и ограничения. Автором предложен Индекс оценки экспортного потенциала (ESBI), охватывающий шесть блоков показателей. Весовые коэффициенты блоков определены методом экспертной оценки AHP, а интегральный индекс рассчитан с использованием метода min–max нормализации и взвешенной суммы. Методика апробирована на данных 60 субъектов предпринимательства Бухарской области. Установлена высокая степень взаимосвязи индекса с экспортной активностью ($r = 0,71$). На основе результатов исследования разработаны практические рекомендации.

Ключевые слова: экспортный потенциал, методика оценки, система показателей, интегральный индекс, ESBI, AHP, нормализация, субъекты предпринимательства.

Abstract. This article systematizes theoretical and methodological approaches to assessing the export potential of business entities and develops a multidimensional system of indicators. Existing approaches, including resource-based, outcome-based, comparative-competitive, and integral approaches, are comparatively analyzed, and their advantages and limitations are identified. The author proposes an Export Potential Assessment Index (ESBI) covering six indicator blocks. The weights of the blocks are determined using the Analytic Hierarchy Process (AHP), while the integral index is calculated using min–max normalization and a weighted-sum method. The methodology was tested using data from 60 business entities in Bukhara Region, confirming a strong correlation between the index and export activity ($r = 0.71$). Based on the findings, practical recommendations are developed.

Keywords: export potential, assessment methodology, indicator system, integral index, ESBI, AHP, normalization, business entities.

KIRISH

Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini boshqarish, eng avvalo, uni to'g'ri o'lchash va baholashdan boshlanadi. "O'lchanmagan narsani boshqarib bo'lmaydi" degan boshqaruv tamoyili eksport sohasida ham to'liq amal qiladi: korxonaning haqiqiy va yashirin eksport imkoniyatlarini miqdoriy ifodalamasdan turib, zaif bo'g'inlarni aniqlash, resurslarni maqsadli yo'naltirish va davlat qo'llab-quvvatlash choralari manzilli qilish mumkin emas.

O'zbekistonda eksportni diversifikatsiya qilish va kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni tashqi bozorlarga jalb etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. 2024-yilda mamlakat eksporti qariyb 26,2 mlrd AQSh dollarini tashkil



etgan bo'lsa-da, eksportning tovar va geografik tarkibi hamon tor doirada jamlangan. Bunday sharoitda hududiy darajada — jumladan, Buxoro viloyatida — ko'plab tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini tizimli baholash metodikasiga ehtiyoj kuchaymoqda.

Biroq amaliyotda “eksport salohiyatini baholash” ko'pincha bir-biriga mos kelmaydigan ko'rsatkichlar yordamida, yagona uslubiy asossiz amalga oshirilmoqda. Ayrim hollarda salohiyat faqat erishilgan eksport hajmi bilan tenglashtiriladi, ayrim hollarda esa sifat jihatidan baholanib, miqdoriy o'lchov berilmaydi. Natijada baholash natijalari taqqoslanmaydi va boshqaruv qarorlari uchun ishonchli asos bo'la olmaydi.

Tadqiqotning maqsadi tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini baholashning nazariy-uslubiy yondashuvlarini tizimlashtirish, kompleks ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish va uning asosida integral baholash metodikasini taklif etishdan iborat. Ilmiy yangilik: (1) mavjud yondashuvlarning qiyosiy tasnifi; (2) oltita blokli ko'rsatkichlar tizimi va ESBI integral indeksi; (3) metodikaning Buxoro viloyati misolida empirik aprotatsiyasi.

Mavzuning dolzarbligi yana bir jihat bilan kuchayadi: eksport salohiyatini baholash metodikasi nafaqat ilmiy, balki amaliy boshqaruv quroli hisoblanadi. To'g'ri tuzilgan baholash tizimi korxonaga o'z imkoniyatlarini real baholash, raqobatchilar bilan qiyoslash va resurslarni eng samarali yo'nalishga jamlash imkonini beradi; hudud va davlat organlari uchun esa qo'llab-quvvatlash choralari manzilli, ya'ni eng katta natija beradigan nuqtalarga yo'naltirish vositasiga aylanadi. Shu bois maqolada metodologik aniqlikka alohida e'tibor qaratiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Eksport salohiyatini baholash muammosi iqtisodiy adabiyotda bir necha yo'nalishda rivojlangan. Birinchi yo'nalish — resurs yondashuvi — salohiyatni mavjud ishlab chiqarish, mehnat va moliyaviy resurslar asosida erishish mumkin bo'lgan maksimal eksport hajmi sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv resurs cheklovlarini yaxshi ko'rsatadi, biroq talab va bozorga kirish shartlarini hisobga olmaydi.

Ikkinchi yo'nalish — natija (zaxira) yondashuvi — salohiyatni amaldagi va potensial eksport hajmi o'rtasidagi farq sifatida o'lchaydi. U foydalanilmagan imkoniyatni ko'rsatadi, ammo salohiyatni qoldiq tarzda hisoblagani uchun uning ichki tuzilmasini ochib bermaydi. Uchinchi yo'nalish — qiyosiy-raqobat yondashuvi (Porter, 1990) — salohiyatni raqobatbardosh tovar ishlab chiqarish va uni tashqi bozorda sotish qobiliyati bilan bog'laydi; bu yondashuv ko'pincha salohiyatni natija bilan aralashtirib yuborish xavfini tug'diradi.


To'rtinchi, eng kompleks yo'nalish — integral (tizimli) yondashuv — salohiyatni resurs, moliyaviy, marketing, sifat, boshqaruv va innovatsion qobiliyatlarning yagona tizimi sifatida ko'rib chiqadi. Resurslar nazariyasi (Penrose, 1959; Barney, 1991) va dinamik qobiliyatlar konsepsiyasi (Teece, 2007) shu yondashuvning nazariy negizini tashkil etadi. Aynan integral yondashuv miqdoriy indeks shaklida operatsionallashtirishga eng moslashgan.

Murakkab, ko'p o'lchovli hodisalarni baholashda kompozit (integral) indekslar keng qo'llaniladi. Ularni qurish odatda ko'rsatkichlarni tanlash, normallashtirish, vaznlash va agregatlashtirish bosqichlaridan iborat (OECD, 2008). Vaznlarni belgilashda obyektiv statistik usullar bilan bir qatorda ekspert usullari, xususan, iyerarxiyalar tahlili (AHP; Saaty, 1980) qo'llaniladi. Mahalliy adabiyotda eksport salohiyatining makroiqtisodiy va institutsional omillariga ko'proq e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, tadbirkorlik subyekti darajasidagi kompleks baholash metodikasi yetarlicha ishlab chiqilmagan. Mazkur maqola shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib, baholash metodikasiga qator talablar qo'yiladi. Birinchidan, u salohiyatni (imkoniyat) eksport natijasidan (erishilgan hajm) ajrata olishi kerak — aks holda baholash o'tmishni qaytarishdan iborat bo'lib qoladi. Ikkinchidan, ko'rsatkichlar tizimi to'liq (eksportga ta'sir etuvchi barcha muhim jihatlarni qamrab oluvchi), ammo ortiqcha takrorlanmaydigan bo'lishi lozim. Uchinchidan, vaznlash usuli shaffof va izchil bo'lishi, natija esa turli korxonalar va davrlar bo'yicha taqqoslanadigan bo'lishi shart. Taklif etilayotgan metodika aynan shu talablarni qondirishga qaratilgan.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda eksport salohiyatini baholashning olti bosqichli metodikasi ishlab chiqilgan (1-rasm). Metodika integral yondashuvga asoslanadi va tadbirkorlik subyekti eksport salohiyatini oltita blok bo'yicha kompleks o'lchashni nazarda tutadi.



1-rasm. Tadbirkorlik subyekti eksport salohiyatini baholash metodikasining bosqichlari

Birinchi bosqichda baholash maqsadi va obyekti aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda har bir blok bo'yicha 3–5 tadan o'lchanadigan ko'rsatkich tanlanadi. Uchinchi bosqichda ko'rsatkichlar min–maks usulida 0–100 ballik shkalaga keltiriladi (rag'batlantiruvchi ko'rsatkichlar uchun $(x - \min) / (\max - \min)$, cheklovchi ko'rsatkichlar uchun teskari formula). To'rtinchi bosqichda blok vaznlari ekspert baholash (AHP) usulida belgilanadi.

Beshinchi bosqichda integral indeks quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi: $ESBI = \sum (w_i \times S_i)$, bu yerda w_i — i-blokning vazni ($\sum w_i = 1$), S_i — i-blokning normallashtirilgan ball qiymati. Oltinchi bosqichda natija talqin qilinadi va korxonalar uchta darajaga (past: 0–50; o'rta: 51–75; yuqori: 76–100) ajratiladi, zaif bo'g'in aniqlanadi.

Vaznlash uchun 22 nafar ekspert (olimlar, eksportni qo'llab-quvvatlash mutaxassislari va amaliyotchi rahbarlar) ishtirokida ikki bosqichli ekspert so'rovi o'tkazildi; juftlik taqqoslashlari AHP yordamida qayta ishlandi, izchillik koeffitsiyenti 0,10 dan past bo'lib, baholar maqbulligini tasdiqladi. Metodika Buxoro viloyatida faoliyat yurituvchi 60 ta tadbirkorlik subyekti (to'qimachilik, oziq-ovqat, hunarmandchilik va xizmat ko'rsatish) ma'lumotlarida (2022–2024-yillar) sinovdan o'tkazildi. Hisob-kitoblarni SPSS 27 dasturida bajarildi.

Tahlilda uchta usul qo'llanildi: (1) har bir korxona uchun ESBI va blok sub-indekslarini hisoblash; (2) ESBI bilan eksport faolligi o'rtasidagi korrelyatsion tahlil; (3) korxonalarni salohiyat darajasi bo'yicha guruhlash va soha kesimida qiyoslash. Metodikaning ishonchliligini ta'minlash uchun ko'rsatkichlar imkon qadar hujjatli manbalar (sertifikatlar, shartnomalar, moliyaviy hisobotlar, bojxona deklaratsiyalari) bilan tasdiqlandi, o'zini baholashga asoslangan javoblar esa qo'shimcha suhbatlar orqali tekshirildi. To'liq ma'lumot taqdim etmagan korxonalar tahlildan chiqarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Avvalo, eksport salohiyatini baholash yondashuvlari qiyosiy tahlil qilindi. 1-jadvalda asosiy yondashuvlar, ularning o'lchov mezonlari va cheklovlari keltirilgan (1-rasm).

1-jadval

Eksport salohiyatini baholash yondashuvlarining qiyosiy tahlili

Yondashuv	O'lchov mezonlari	Asosiy cheklovi
Resurs yondashuvi	Resurslar asosida erishish mumkin bo'lgan maksimal eksport	Talab va bozor shartlarini hisobga olmaydi
Natija (zaxira)	Amaldagi va potensial eksport farqi	Salohiyat tuzilmasini ochmaydi
Qiyosiy-raqobat	Raqobatbardosh tovar ishlab chiqarish qobiliyati	Natija bilan aralashib ketadi
Integral (tizimli)	Resurs, moliya, bozor, sifat va boshqaruv qobiliyatlari yig'indisi	Ko'p o'lchovli o'lchashni talab qiladi
Muallif yondashuvi	Olti blokli vaznli integral indeks (ESBI)	—

Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

2-jadvalda ESBI ni tashkil etuvchi oltita blok, ularning asosiy ko'rsatkichlari va ekspert baholash asosida




belgilangan vaznlari keltirilgan (2-jadval).

2-jadval

ESBI ko'rsatkichlar tizimi va bloklar vazni (AHP, n = 22)

Blok	Asosiy ko'rsatkichlar	Vazni, %
Mahsulot sifati va raqobatbardoshligi	sertifikatlar; nuqson ulushi; narx-sifat nisbati	20
Resurs-ishlab chiqarish salohiyati	quvvatlardan foydalanish; xomashyo bazasi; hajm	18
Bozor-marketing salohiyati	bozorlar soni; eksport tajribasi; brending	17
Moliyaviy salohiyat	rentabellik; likvidlik; investitsiya imkoni	16
Boshqaruv va kadrlar salohiyati	menejment sifati; til/eksport ko'nikmasi	15
Innovatsion-raqamli salohiyat	innovatsiya; raqamli kanallar; e-tijorat	14
Jami	—	100

Eslatma: AHP izchillik koeffitsiyenti < 0,10. Manba: muallif ekspert so'rovi.



2-rasm. ESBI bloklari vaznining taqsimoti (AHP, n = 22)

Ishlab chiqilgan metodika 60 ta tadbirkorlik subyektida sinovdan o'tkazildi. 3-jadvalda korxonalarning ESBI darajasi bo'yicha taqsimoti va ularning o'rtacha eksport ko'rsatkichlari berilgan (3-jadval).

3-jadval

Korxonalarning ESBI darajasi bo'yicha taqsimoti va eksport ko'rsatkichlari (N = 60)

ESBI darajasi	Korxonalar, %	O'rtacha ESBI	Eksport faolligi, %	Bozorlar (o'rt.)
Yuqori (76–100)	16,7	81,2	29,4	4,3
O'rta (51–75)	38,3	63,5	15,8	2,4
Past (0–50)	45,0	38,7	5,6	1,1
Jami / O'rtacha	100,0	54,1	12,1	2,1

Manba: muallif hisob-kitoblari.

Natijalar metodikaning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi: yuqori ESBI guruhidagi korxonalar past guruhga nisbatan o'rtacha 5,3 barobar yuqori eksport faolligini (29,4% ga qarshi 5,6%) namoyish etadi va deyarli to'rt baravar ko'p tashqi bozorga chiqadi. ESBI ning eksport faolligi bilan korrelyatsiyasi yuqori ($r = 0,71$; $p < 0,01$) bo'lib, indeks salohiyatni ishonchli o'lchashini ko'rsatadi. Shu bilan birga, korxonalarning 45 foizi past salohiyat

guruhida joylashgani hududda foydalanilmagan eksport zaxirasi katta ekanini bildiradi.

Umumiy ko'rsatkich soha kesimida sezilarli farqlanadi. 4-jadvalda tanlanmadagi korxonalarining soha bo'yicha o'rtacha ESBI qiymati va eng zaif bloki keltirilgan (4-jadval).

4-jadval

Soha kesimida o'rtacha ESBI va eng zaif blok (Buxoro viloyati, N = 60)

Soha	Korxonalar (n)	O'rtacha ESBI	Eng zaif blok
To'qimachilik va tikuvchilik	18	58,3	Bozor-marketing
Oziq-ovqat va agro-qayta ishlash	16	54,7	Mahsulot sifati/sertifikat
Xizmat ko'rsatish va turizm	14	52,9	Innovatsion-raqamli
Hunarmandchilik va gilamchilik	12	47,4	Bozor-marketing
O'rtacha	60	54,1	—

Manba: muallif hisob-kitoblari.

To'qimachilik sohasi eng yuqori o'rtacha ESBI ga (58,3) ega bo'lib, uning zaif bo'g'ini bozor-marketing salohiyatidir; oziq-ovqat sohasida esa hal qiluvchi cheklov — xalqaro sifat sertifikatlarining yetishmasligi. Bu natijalar har bir soha uchun qo'llab-quvvatlash choralari turlicha bo'lishi kerakligini ko'rsatadi: bir holatda — marketing va bozorga chiqish, boshqasida — sertifikatlash va sifat infratuzilmasi birinchi o'ringa chiqadi. Demak, ESBI metodikasi nafaqat umumiy darajani, balki aralashuv nuqtasini ham aniqlash imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalari integral yondashuvning ustunligini tasdiqlaydi: eksport salohiyatini yagona blok yoki bitta ko'rsatkich orqali emas, balki o'zaro to'ldiruvchi oltita blok orqali baholash uni boshqaruv uchun yaroqli holatga keltiradi. ESBI ning yuqori korrelyatsiyasi va darajalar bo'yicha aniq tabaqalanish indeks shunchaki o'tmish natijasini emas, balki haqiqiy salohiyatni o'lchashini ko'rsatadi.

Bloklar vazni (mahsulot sifati — 20%, resurs — 18%, bozor-marketing — 17%) ko'rsatadiki, eksportga chiqishda hal qiluvchi omil — raqobatbardosh va sertifikatlangan mahsulot hamda unga mos bozor-marketing qobiliyatidir. Bu Porter va resurslar nazariyasi xulosalariga mos keladi. Eng muhim amaliy jihat shundaki, ESBI yagona ballni emas, balki har bir korxonaning eng zaif blokini ko'rsatadi — bu esa qo'llab-quvvatlash choralari manzilli qilish imkonini beradi.

Tadqiqotning cheklovlari sifatida tanlanma hajmi (60 korxona) va ayrim ko'rsatkichlarning ekspert/o'zini baholashga asoslangani ko'rsatiladi. Kelgusida metodikani panel ma'lumotlar asosida sinovdan o'tkazish, boshqa viloyatlar bilan qiyoslash va obyektiv mahsuldorlik ko'rsatkichlari bilan to'ldirish maqsadga muvofiqdir.

Metodikaning yana bir muhim afzalligi — uning dinamik qo'llanilishidir. ESBI ni vaqt bo'yicha takroran hisoblash orqali korxona yoki hududning eksport salohiyati o'sayotgani yoki pasayayotganini, qaysi bloklar hisobiga o'zgarish yuz berayotganini kuzatish mumkin. Bu indeksni shunchaki bir martalik o'lchov emas, balki monitoring va rejalashtirish quroliga aylantiradi. Bloklarning o'zaro to'ldiruvchanligi sababli, eng zaif blokka yo'naltirilgan aralashuv eng yuqori chegaraviy samarani beradi — bu metodikaning asosiy boshqaruv mantig'idir.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar ilgari suriladi. Birinchidan, eksport salohiyatini baholashda integral yondashuv eng samarali bo'lib, u salohiyatni resurs, moliya, bozor, sifat, boshqaruv va innovatsion bloklar tizimi sifatida miqdoriy o'lchash imkonini beradi. Ikkinchidan, taklif etilgan olti blokli ESBI metodikasi eksport faolligi sifatida yuqori bog'liqlikni ($r = 0,71$) namoyish etadi va boshqaruv qarorlari uchun ishonchli asos bo'la oladi. Uchinchidan, Buxoro viloyatida korxonalarning katta qismi past salohiyat guruhida joylashgani sezilarli foydalanilmagan eksport zaxirasini ko'rsatadi.

Quyidagi tavsiyalar ishlab chiqilgan:

Korxona darajasida: ESBI bo'yicha eng zaif blokni aniqlash va uni bosqichma-bosqich kuchaytirish; xalqaro sertifikatlash va sifat tizimlariga investitsiya kiritish; eksport-marketing va raqamli savdo kanallarini rivojlantirish.

Hudud (mezo) darajasida: viloyatda yagona metodika asosida eksport salohiyati monitoringini joriy etish; eksportga yo'naltirilgan klasterlar va sertifikatlash laboratoriyalarini rivojlantirish; eksport-konsalting markazini tashkil qilish.

Davlat darajasida: baholash metodikasini qo'llab-quvvatlash dasturlariga manba sifatida bog'lash; KO'B



subyektlari uchun eksport krediti va sug'urtasini kengaytirish; hududiy eksport diversifikatsiyasi maqsadlarini strategik hujjatlarga kiritish.

Taklif etilgan nazariy-uslubiy yondashuv va ESBI ko'rsatkichlar tizimi tadbirkorlik subyektlari, hudud hokimiyati va davlat organlari uchun eksport salohiyatini tizimli baholash va oshirishda amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Metodikaning shaffofligi, taqqoslanuvchanligi va dinamik qo'llanilishi uni nafaqat bir martalik baholash, balki uzluksiz monitoring va manzilli qo'llab-quvvatlash siyosatining asosiy quroliga aylaniradi. Bu esa, pirovardida, hududda eksport bazasini kengaytirish va uni diversifikatsiya qilish, ya'ni O'zbekistonning milliy taraqqiyot ustuvorliklariga erishishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarda Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. Porter, M.E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. Free Press, New York.
3. Penrose, E. (1959). The Theory of the Growth of the Firm. Oxford University Press, Oxford.
4. Barney, J. (1991). Firm resources and sustained competitive advantage. Journal of Management, 17(1), 99–120.
5. Teece, D.J. (2007). Explicating dynamic capabilities. Strategic Management Journal, 28(13), 1319–1350.
6. Saaty, T.L. (1980). The Analytic Hierarchy Process. McGraw-Hill, New York.
7. OECD & European Commission (2008). Handbook on Constructing Composite Indicators. OECD Publishing, Paris.
8. Markaziy bank (2025). 2024-yil to'lov balansi va tashqi savdo sharhi. Toshkent.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100